
Matn fenomeni va uning zamonaviy tilshunoslikdagi o'рни: til, kontekst va kommunikatsiyaning integratsiyasi

Xusanova Zuhra Almamat qizi

zuxra.xusanova@gmail.com

Doktorant,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Maqolada matn fenomeni va uning zamonaviy tilshunoslikdagi o'рни atroflicha tahlil qilinadi. Til, kontekst va kommunikatsiyaning o'zaro bog'liqligi matnni to'laqonli anglashda hal qiluvchi omil sifatida ko'riladi. Muallif matnni lingvistik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy fenomen sifatida ham talqin etadi. Shu jihatdan matn kommunikativ jarayonning markaziy bo'g'ini sifatida ko'rib chiqilib, uning shakl va mazmunidagi o'zgaruvchanlik ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda yoritiladi. Maqolada matn lingvistikasining nazariy asoslari, kognitiv va kommunikativ yondashuvlari, matnning semantik, pragmatik hamda diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikdagi yondashuvlar bilan qiyosiy o'rganish asosida matnning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ochib beriladi. Matn til va tafakkur integratsiyasi mahsuli sifatida qaralib, u jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish va saqlashda muhim kommunikativ vosita ekani ko'rsatib o'tiladi. Maqolada ilgari surilgan nazariy qarashlar matn lingvistikasini yangi bosqichga olib chiqish, lingvopragmatik tadqiqotlarni kengaytirish va kommunikativ jarayonlarni tushuntirishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega ekani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ish tilshunoslikdagi dolzarb masalalarni o'rganishda ishonchli manba hisoblanadi. Tadqiqot natijalari matnning kognitiv va pragmatik talqinini yanada boyitib, yangi ilmiy izlanishlarga yo'l ochadi.

Kalit so'zlar

Matn, lingvistika, kontekst, kommunikatsiya, pragmatika, diskurs, kognitiv yondashuv, til tizimi

Феномен текста и его роль в современной лингвистике: интеграция языка, контекста и коммуникации

Хусанова Зухра Алмамет кизи

zuxra.xusanova@gmail.com

Докторант,

Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация

В статье всесторонне анализируется феномен текста и его роль в современной лингвистике. Взаимосвязь языка, контекста и коммуникации рассматривается как решающий фактор для полноценного понимания текста. Автор трактует текст не только как лингвистическую единицу, но и как социально-психологическое и культурное явление. В этом отношении текст рассматривается как центральное звено коммуникативного процесса, а его изменчивость формы и содержания освещается во взаимосвязи с социальными факторами. В статье раскрываются теоретические основы лингвистики текста, когнитивные и коммуникативные подходы, а также семантические, прагматические и дискурсивные особенности текста. Кроме того, на основе сопоставительного анализа с современными лингвистическими подходами

раскрывается социокультурное значение текста. Текст рассматривается как продукт интеграции языка и мышления и показан как важное коммуникативное средство в формировании и сохранении духовных ценностей в обществе. Представленные в статье теоретические положения имеют особое значение, поскольку выводят лингвистику текста на новый этап, расширяют лингвопрагматические исследования и объясняют коммуникативные процессы с теоретической и практической ценностью. Таким образом, работа является надёжным источником для изучения актуальных проблем лингвистики. Результаты исследования дополнительно обогащают когнитивное и прагматическое толкование текста и открывают новые направления для научных изысканий.

Ключевые слова *Текст, лингвистика, контекст, коммуникация, прагматика, дискурс, когнитивный подход, языковая система*

The phenomenon of text and its role in modern linguistics: integration of language, context and communication

Khusanova Zukhra Almat qizi

zuxra.xusanova@gmail.com

PhD candidate,

Uzbekistan State World Languages University

Annotation *The article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of text and its role in modern linguistics. The interrelation of language, context, and communication is considered a decisive factor in the complete understanding of text. The author interprets text not only as a linguistic unit but also as a socio-psychological and cultural phenomenon. In this regard, text is viewed as the central link of the communicative process, and its variability in form and content is examined in connection with social factors. The article discusses the theoretical foundations of text linguistics, cognitive and communicative approaches, as well as the semantic, pragmatic, and discursive features of text. Furthermore, based on a comparative study with modern linguistic approaches, the socio-cultural significance of text is revealed. Text is regarded as the product of the integration of language and thought, and it is shown to be an important communicative tool in shaping and preserving spiritual values within society. The theoretical views put forward in the article are of particular importance as they advance text linguistics to a new stage, broaden linguopragmatic research, and explain communicative processes with both theoretical and practical value. Therefore, the study is considered a reliable source for exploring pressing issues in linguistics. The research results further enrich the cognitive and pragmatic interpretation of text and open new directions for scholarly inquiry.*

Keywords *Text, linguistics, context, communication, pragmatics, discourse, cognitive approach, language system*

Kirish

Tilshunoslikning zamonaviy taraqqiyoti jarayonida matn fenomeni eng ko'p muhokama qilinayotgan va tadqiqot markazida turgan masalalardan biriga aylandi. Agar XX asr boshlarida lingvistika asosan so'z, gap yoki morfemaga qadar bo'lgan til birliklarini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, keyingi yillarda matnni yaxlit kommunikativ hodisa sifatida o'rganish ehtiyoji paydo bo'ldi. Chunki inson tafakkuri, ijtimoiy hayot va madaniy muloqot jarayonida tilning eng ko'p qo'llaniladigan shakli alohida so'z yoki gap emas, balki matn bo'lib chiqadi. Demak, matnni o'rganmasdan turib, tilning jamiyatdagi haqiqiy vazifasini anglab bo'lmaydi.

Matn lingvistikasining shakllanishida turli ilmiy maktablarning ta'siri seziladi. Masalan, rus tilshunosligida I.R. Galperin, O.I. Moskalskaya, M.Ya. Blox kabi olimlar matnni lingvistik birlik sifatida izohlagan bo'lsa, g'arbda M.A.K. Halliday, T.A. van Dijk, R. Beaugrande, W. Dressler singari olimlar matnni kommunikativ hodisa sifatida tadqiq qildilar. Ularning ishlari matnni tushinishda kontekst, kommunikativ maqsad, pragmatik vazifa kabi omillarni alohida ajratib ko'rsatdi. Bu jarayon matnni faqat til tizimining bir unsuri sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab fenomen sifatida qarash imkonini berdi.

Matn fenomenining dolzarbligi, avvalo, til va tafakkurning o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Til kishilik ongining shakllanishi va ijtimoiy tajribaning avloddan avlodga o'tishini ta'minlovchi asosiy vositadir (Beaugrande, & Dressler, 1981). Shu bois, matn tilshunoslikning markaziy obyektlaridan biri bo'lishi tabiiydir. Matn nafaqat til tizimini, balki kontekstual omillarni ham o'z ichiga olgani uchun uni tushinishda lingvistika, semiotika, falsafa, psixologiya va madaniyatshunoslik yondashuvlari birlashadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda matn ko'proq kognitiv va

kommunikativ paradigma nuqtai nazaridan tahlil qilinmoqda. Bunday yondashuv matnni inson idroki, muloqot strategiyalari va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq holda o'rganishga imkon yaratadi.

Bugungi globallashuv davrida matnning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki matn xalqaro kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot va global axborot maydonida asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Internet va yangi media vositalari matnni yangicha shakllarda namoyon qilmoqda: elektron matn, multimodal matn, ijtimoiy tarmoqlar tilida yuzaga kelgan qisqa, ammo yuqori darajada pragmatik yuklamaga ega bo'lgan matnlar bunga yaqqol misoldir. Shu sababli matnni zamonaviy texnologik taraqqiyot kontekstida o'rganish ham tilshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Maqolaning asosiy maqsadi – matn fenomenining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rnini aniqlash, til, kontekst va kommunikatsiya integratsiyasi orqali uning mohiyatini yoritishdir. Bunda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Matn lingvistikasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish.
2. Til va kontekst o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab berish.
3. Matnni kommunikatsiya jarayonidagi asosiy birlik sifatida izohlash.
4. Matnning semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlarini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida ko'rsatish.
5. Matnni kognitiv va ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilish (Galperin, 1981).

Shuningdek, maqola matnni o'rganishda interdisiplinar yondashuvning ahamiyatini ham yoritadi. Chunki tilshunoslikdagi so'nggi yutuqlar shuni ko'rsatmoqdaki, matnni faqat grammatik yoki leksik tahlil qilish yetarli emas, balki uni kommunikativ strategiyalar, ijtimoiy kontekst va inson idroki bilan bog'liq

holda tahlil etish zarur. Shunday qilib, kirish qismida ta'kidlanadiki, matn fenomenini tadqiq etish tilshunoslikning nazariy va amaliy rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Matnni til, kontekst va kommunikatsiyaning integratsiyasi sifatida o'rganish esa bugungi zamonaviy lingvistik izlanishlar uchun dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Matn lingvistikasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Bunga qadar tilshunoslikda tadqiqotlar, asosan, tilning grammatikasi, sintaksisi va fonetikasi doirasida olib borilar edi. Ammo keyinchalik tadqiqotchilar tilning asosiy vazifasi – muloqotni to'liq tahlil qilish uchun alohida birliklar emas, balki butun matnni o'rganish zarurligini angladilar. Chunki inson tafakkurining mahsuli bo'lgan til ko'proq matn shaklida ifodalanadi va tushuniladi. Matn lingvistikasi shakllanishiga bir nechta ilmiy maktablar ta'sir ko'rsatdi. Avvalo, rus tilshunosligida bu yo'nalishni rivojlantirgan olimlar qatorida I.R. Galperin, O.I. Moskalskaya, L.S. Barkhudarovlarni tilga olish mumkin. Ular matnni yaxlit lingvistik birlik sifatida talqin etib, uning struktura va mazmunini ajratib ko'rsatganlar. G'arb tilshunosligida esa T.A. van Dijk, R. de Beaugrande, W. Dressler, M.A.K. Halliday matn lingvistikasining nazariy poydevorini yaratdilar. Jumladan, van Dijk matnni diskurs nazariyasi bilan bog'liq holda izohladi, Beaugrande va Dressler esa matnning yetti mezonini ishlab chiqdilar: kohesivlik, koherentligi, qabul qilinuvchanligi, informativligi, intertekstualigi, situativligi va muloqotga yo'naltirilganligi.

Shunday qilib, matn lingvistikasi 1960-1970-yillarda alohida ilmiy sohaga aylandi va hozirgi kunda ham tilshunoslikning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanishda davom etmoqda.

Matn lingvistikasida matnni oddiy gaplar yig'indisi sifatida emas, balki semantik va pragmatik yaxlitlikka ega bo'lgan tuzilma sifatida o'rganish muhimdir. Olimlar matnning quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar:

1. *Yaxlitlik (kohesivlik va koherentlik)* – matnning grammatik va semantik bog'liqlik asosida shakllanishi.
2. *Mazmuniy tugallik* – matnning aniq kommunikativ maqsadga xizmat qilishi.
3. *Pragmatik yo'naltirilganlik* – muallifning maqsadi, adresatning ehtiyoji va kommunikatsiya vaziyatiga moslik.
4. *Diskursivlik* – matnning ijtimoiy-madaniy va tarixiy kontekstda talqin etilishi.
5. *Intertekstualik* – matnning boshqa matnlar bilan bevosita yoki bilvosita bog'lanishi.

Mazkur xususiyatlar matnni nafaqat lingvistik birlik, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi. Matn lingvistikasi nazariy asoslarini tahlil qilar ekanmiz, uchta yondashuvni alohida ajratish mumkin:

- Strukturalizm matnga grammatik birliklarning yuqori darajadagi tashkiloti sifatida qaraydi. Bu yondashuvda matnning ichki tuzilishi, sintaktik va leksik bog'lanishlar asosiy obyekt sifatida o'rganiladi.
- Funksionalizm matnni kommunikativ jarayon mahsuli sifatida tahlil qiladi. Hallidayning tizimli-funksional grammatikasi matnning til tizimidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega. (Halliday & Hasan, 1976).
- Kognitiv yondashuv esa matnni inson tafakkuri va idrok jarayoni bilan bog'liq holda izohlaydi. Bu yondashuvda matnning semantik va konseptual asoslari, shuningdek, til va tafakkur o'zaro munosabati asosiy e'tiborda bo'ladi.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ko'proq kognitiv va kommunikativ yondashuvlar qo'llanilmoqda. Chunki ular matnning nafaqat tuzilishini, balki uning ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarini ham o'rganishga imkon beradi.

Matn lingvistikasining yana bir muhim jihati – uning interdisiplinar tabiatidir. Matnni to'liq tahlil qilish uchun lingvistika bilan bir qatorda semiotika, falsafa, sotsiologiya,

psixologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarning yondashuvlari ham zarur. Masalan, semiotika matnni belgi tizimi sifatida ko'rsa, psixologiya matnning idrok va tushunilish mexanizmlarini o'rganadi. Sotsiologiya esa matnning ijtimoiy ahamiyati va kommunikativ roli bilan shug'ullanadi. Bu integratsion yondashuv matn fenomenini yanada kengroq qamrab olishga va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Tilshunoslikda matnni to'liq anglash uchun uning tuzilishi va mazmunini kontekstdan ajratib bo'lmaydi. Til – bu belgilarning tizimi bo'lib, undagi birliklar o'z ma'nosini ko'pincha ularning qo'llanish sharoitida, ya'ni kontekstda ochib beradi. Kontekstsiz so'z yoki gap ma'nosi noaniq bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "bank" so'zi kontekstsiz holda bir vaqtning o'zida ham "moliyaviy muassasa", ham "daryo qirg'og'i"ni anglatishi mumkin. Faqat kontekstgina uning haqiqiy ma'nosini aniqlab beradi.

Kontekst matnni anglash jarayonida ikki asosiy funksiyani bajaradi:

1. *Semantik aniqlik berish* – so'z va gaplarning to'g'ri talqin etilishini ta'minlaydi.
2. *Pragmatik yo'naltirish* – muallifning maqsadini, adresatning qabul qilish imkoniyatini va kommunikatsiya vaziyatini belgilaydi. Shu bois matnni tilshunoslik doirasida emas, balki kontekstual jarayon sifatida ko'rib chiqish zarur.

Matnni tahlil qilishda olimlar turli kontekst turlarini farqlaydilar:

- *Lingvistik kontekst* – matn ichidagi so'z va gaplarning bir-biriga munosabati. Masalan, ko'rsatkich olmoshlarning aniq qaysi predmet yoki shaxsga ishora qilishi shu kontekst orqali belgilanadi.
- *Situativ kontekst* – matnning yuzaga kelish sharoiti, voqea-hodisa va real vaziyat bilan bog'liqligi. (Karasik, 2004). Masalan, siyosiy nutqda ishlatilgan "biz"

olmoshi mamlakat hukumati, xalq yoki muayyan siyosiy guruhni anglashi mumkin.

- *Madaniy kontekst* – matnda qo'llanilgan ramzlar, metaforalar va tushunchalarning milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi (Hasan, 1989). Masalan, o'zbek matbuotidagi "Navro'z" timsoli bilan ingliz matbuotidagi "Christmas" timsoli turli madaniy konnotatsiyaga ega.
- *Intertekstual kontekst* – matnning boshqa matnlar bilan bog'liqligi. Adabiy yoki publitsistik matnlarda muallif avvalgi manbalarga ishora qilishi mumkin, bu esa adresatning oldingi bilimlariga tayanadi. Bu turdagi kontekstlar birgalikda matnning to'liq anglanishiga xizmat qiladi (Moskalskaya, 1981).

Matnning eng muhim vazifasi – muloqotni ta'minlashdir (Barkhudarov, 1975). Har qanday matn muallif va adresat o'rtasida vositachilik qiladi. Shu jarayonda kontekst kommunikativ jarayonni to'laqonli amalga oshiradi. Masalan, gazeta maqolasida ishlatilgan siyosiy terminlar va shiorlar muayyan davr ijtimoiy-siyosiy kontekstida anglanadi. Agar ularni boshqa davr yoki madaniyat nuqtayi nazaridan o'qilsa, ularning ma'nosi o'zgarishi yoki tushunarsiz bo'lishi mumkin (Blox, 2000).

Kommunikativ jarayonni Van Dijk diskurs nazariyasi asosida izohlar ekan, u matnning mazmuniy tuzilishini kontekst belgilashini ta'kidlaydi (Van Dijk, 1980). Demak, matnning kommunikativ kuchi uning faqat lingvistik shaklida emas, balki kontekstual mazmunida mujassamdir.

Kognitiv lingvistika matnni inson tafakkurining mahsuli sifatida talqin qiladi (Van Dijk, 1997). Shu nuqtai nazardan, kontekst faqat tashqi sharoit emas, balki inson ongidagi bilimlar majmuasi sifatida ham qaraladi. Masalan, Lakoff va Jonsoning kognitiv metafora nazariyasida matnning tushunilishi odamlarning konseptual tajribasiga bog'liq. Shu sababli bir metafora turli madaniyatlarda turlicha anglanishi mumkin.

Kognitiv yondashuv matnni idrok etishda kontekstning ikki qatlamini ajratadi:

- *Ichki kontekst* – inson ongidagi konseptual tizim, bilimi va dunyoqarashi.
- *Tashqi kontekst* – ijtimoiy-madaniy sharoit, tarixiy davr va kommunikativ vaziyat. Bu ikki qatlam uyg'un holda matnning mazmunini shakllantiradi. Ingliz matbuoti: The New York Times gazetasida "America First" shiori nafaqat til birliklari yig'indisi, balki AQShning tarixiy-siyosiy konteksti bilan bog'liq bo'lgan ideologik ma'no anglatadi (NYT, 2017).

O'zbek matbuoti: "O'zbekiston Ovozi" gazetasida "Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot sari" iborasi mamlakatning mustaqillikdan keyingi siyosiy islohotlari kontekstida tushuniladi (O'zbekiston Ovozi, 2021). Bu misollar ko'rsatadiki, kontekst matnni oddiy til shaklidan tashqariga olib chiqadi va uni ijtimoiy hamda madaniy mazmun bilan boyitadi.

Demak, til va kontekst matnni anglashda bir-biridan ajralmas hodisalar hisoblanadi. Til

o'zining belgilovchi imkoniyatlari bilan matnning shaklini ta'minlasa, kontekst uning mazmunini to'ldiradi va pragmatik yo'nalishini belgilaydi. Matnni to'liq anglash uchun lingvistik, situativ, madaniy va intertekstual kontekstlarni hisobga olish zarur. Shu bois, matn fenomeni zamonaviy tilshunoslikda faqat til birliklari orqali emas, balki ularni kontekstual integratsiyada ko'rish orqali tadqiq etiladi (Schiffrin, 1994).

Matn lingvistikasi bugungi kunda tilshunoslikning asosiy sohalaridan biri sifatida shakllanib, nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Uning nazariy asoslari – strukturalizm, funksionalizm va kognitiv yondashuvlar – matnni turli qirralardan tahlil qilishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, interdisiplinar yondashuv matnni til, tafakkur, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi murakkab integrativ hodisa sifatida o'rganishga imkon beradi. Shu bois matn fenomenini zamonaviy lingvistika doirasida o'rganish nafaqat ilmiy nazariya, balki amaliy kommunikatsiya jarayonlari uchun ham dolzarbdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkhudarov, L. S. (1975). *Yazyk i perevod (Voprosy obshchey i chastnoy teorii perevoda)* [Language and translation: Questions of general and specific translation theory]. Mezhdunarodnye otnosheniya.
2. Beaugrande, R. de, & Dressler, W. (1981). *Introduction to text linguistics*. Longman.
3. Bloch, M. Y. (2000). *Theoretical fundamentals of grammar*. Vysshaya Shkola.
4. Galperin, I. R. (1981). *Text as an object of linguistic study*. Nauka.
5. Halliday, M. A. K. (1985). *An introduction to functional grammar*. Edward Arnold.
6. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. Longman.
7. Hasan, R. (1989). *Linguistics, language and verbal art*. Oxford University Press.
8. Karasik, V. I. (2004). *Yazykovoy krug: lichnost', kontsepty, diskurs* [Language circle: Personality, concepts, discourse]. Peremena.
9. Moskalskaya, O. I. (1981). *Grammatika teksta* [Grammar of the text]. Vysshaya Shkola.
10. Schiffrin, D. (1994). *Approaches to discourse*. Blackwell.
11. Van Dijk, T. A. (1980). *Macrostructures: An interdisciplinary study of global structures in discourse, interaction, and cognition*. Lawrence Erlbaum Associates.
12. Van Dijk, T. A. (1997). *Discourse as structure and process*. SAGE Publications.